

XORIY TAJRIBALARIDA BOLALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.028>

Аннотация. Мақоллада dunyoda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantirishda badiiy pedagogika yondashuvlariga asoslanish, ART pedagogikasi vositasida ta'lim oluvchilarning tasavvur va tafakkurlarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalarini badiiy matnlar bilan ishlashga o'rgatish orqali ularning estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, art-pedagogika vositasida bolalarning ijodkorlikka intilish sifatlarini rivojlantirishga oid ilmiy – nazariy fikrlar, adabiyotlar tahlili, taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Калит so'zlar: maktabgacha ta'lim, xorij tajribasi, zamonaviy yondashuv, ona tarbiyasi, innovatsiya, ilg'or usullar, pedagogik texnologiya, ART pedagogikasi, ijodkorlik, didaktik tamoyillar, tafakkur, tasavvur.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ДЕТСКОГО ТВОРЧЕСТВА В ЗАРУБЕЖНОМ ОПЫТЕ

Мирзаева Дильфуза Шавкатовна,
Доцент кафедры дошкольного образования Бухарского государственного университета

Аннотация. В статье рассмотрены основы художественно-педагогических подходов к развитию творческих навыков у воспитанников дошкольной образовательной организации в мире, проведен ряд научных исследований по развитию воображения и мышления обучающихся средствами арт-педагогике, в частности, по формированию эстетического сознания и мировоззрения детей подготовительной группы дошкольной образовательной организации посредством обучения работе с художественными текстами, по формированию творческих способностей детей средствами арт-педагогике. о развитии качеств стремления к творчеству научная – изложены теоретические соображения, анализ литературы, предложения и рекомендации.

Ключевые слова: дошкольное образование, зарубежный опыт, современный подход, материнское воспитание, инновации, передовые методы, педагогические технологии, художественная педагогика, творчество, дидактические принципы, мышление, воображение.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S CREATIVITY IN FOREIGN EXPERIMENTS

Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna,
Associate professor of the Department of preschool education of Bukhara State University

Abstract. In the article, a number of scientific research on the development of artistic pedagogical approaches in the development of creativity skills in preschoolers in the world, on the development of imagination and thinking of those educated through art pedagogy, especially on the development of the qualities of children of the preparatory group of preschool educational organization to strive for creativity by teaching children to work with – theoretical opinions, literature analysis, suggestions and recommendations are outlined.

Keywords: preschool education, foreign experience, modern approach, maternal education, innovation, advanced methods, pedagogical technology, art pedagogy, creativity, didactic principles, thinking, imagination.

Kirish. Dunyoda maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantirishda badiiy pedagogika yondashuvlariga asoslangan ijodning musiqa va tasviriy san'at turlarining imkoniyatlarini aniqlashtirish, ART pedagogikasi vositasida ta'lim oluvchilarning

tasavvur va tafakkurlarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi bolalarini badiiy matnlar bilan ishlashga o'rgatish orqali ularning estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, art-pedagogika vositasida bolalarning ijodkorlikka intilish sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, badiiy ijod namunalari va o'quv faoliyati asosida bolalarni go'zallikni ko'ra olish, undan ilhomlanishga o'rgatishda pedagogning aksiologik yondashuvni tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarflik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijlik olimlardan E.Segen, J.Demor, O.Dekroli, T.Kollen, R.Biker-Vayt, D.Zubeyde, B.Chrisi Ioannou, M.Morris, N.Goldman, E.Bezani Chloye kabilarning tadqiqotlarida san'at vositasida o'quvchilarning estetik kompetentligini rivojlantirish, teatr pedagogikasi orqali bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Bolalarni maktabga tayyorlash juda murakkab jaryon bo'lib, ota-onalardan anchagina narsalarni bilishlari lozimligini taqozo etadi. Bolalarni tasviriy san'atga tayyorlash ularning ilk yoshlaridanoq boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bolalar ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan faoliyat bilan qanchalik erta shug'ullansalar shunchalik tez kerakli tajribalarga ega bo'ladilar.

Mavzu metodologiyasi. Bir qator rivojlangan davlatlarning ta'lim tarbiya jarayonlarida gumanistik tamoyillarga asoslangan holda ART pedagogikasi, badiiy pedagogika sohasidan foydalanishga muhim e'tibor qaratilgan.

Yaponiyada bola tarbiyasiga o'ta jiddiy munosabatda bo'linib, har bir yoshga nisbatan uning bilimlarni qabul qilish darajasini hisobga olgan holda ma'lum bir munosabatda bo'linadi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko'ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin. Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo'lgan kichiktoyga qiroldan muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o'ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog'chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to'ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o'z farzandlarini o'yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi. Ular ko'pincha akalari va opalaridan qolgan kiyimlarni kiyishadi. Sayrga chiqqanda esa o'yinchoqlar olib chiqilmaydi. Bolalarda atrof-muhitga bo'lgan mehrni shakllantirish maqsadida tabiat in'omlari bilan rivojlantiruvchi o'yinlar o'ynashga harakat qilinadi, tabiat qo'yniga chiqib, tirik tabiatni kuzatish, his etish, eshitish, asrashni o'rganishadi. Bu o'z navbatida fuqarolarni yoshligidanoq Yaponiya tabiatini asrab-avaylashga o'rgatadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bola tarbiyasida erkinlikka o'zgacha e'tibor qaratiladi. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishadi. Ular mustaqil insonni tarbiyalash maqsadida o'z farzandlariga go'dakligidanoq «Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisan», degan so'zlarni har kun aytishadi. Berilgan topshiriqni bajarishda xatolikka yo'l qo'yishsa, ularga tanbeh bermay: «Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!» deya qo'llab-quvvatlashadi. Bolada ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirishda bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi.

Shvetsiyada bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o'z huquqlari va majburiyatlari bor. Shuningdek, shvedlardagi bag'rikenglik, o'zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo'lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo'lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. Shvedlar bolalarni kichik yoshdan boshlab san'atni sevishga, estetik tarbiyalashga harakat qilishadi. Bolani faol, o'z fikrini bildiradigan, mustaqil, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadigan inson sifatida tarbiyalashga harakat qilinadi.

Finlyandiyada jismoniy imkoniyati chegaralangan bolalar ham oddiy bog'cha va maktablarga borishadi. Bu yerda nogiron va sog'lom bolaga ajratish qabul qilinmagan. O'yin va ijodiy faoliyat bolani rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Ota-onalar ham bunga katta e'tibor berishadi. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalari hamda jamoat joylari o'yingohlar va maydonchalar, bolani ovqatlantirish uchun maxsus xonalar, kafelarda maxsus bolalar uchun taomnomalar, jamoat transporti esa bolalar o'rindiqlari bilan jihozlangan.

Fransiyada bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog'chasiga berish odatiy holdir. Bu fransuz ayollariga ishlash imkoniyatini beribgina qolmay, balki bolalarning go'dakligidanoq jamoaga moslashuvi va mustaqil bo'lib o'sishlari uchun ko'nikma hosil qilish jarayonini tezlashiga imkoniyat yaratadi. Olti yoshidanoq fransuz bolalari ijodiy faoliyatga asoslangan ta'lim tarbiya orqali o'z-o'zini rivojlantirib

boradi, ulardagi tafakkur va tasavvur qilish qobiliyatlari badiiy pedagogika usullari vositasida sayqallanadi.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantiruvchi ijodiy ish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlariga bola borganidan so'nggina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Nemislar o'z farzandlariga yoshligidanoq iqtidorlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga ijodiy o'yinlar asosida tejamkor, tartibli bo'lishni, atrof-muhitni muhofaza etishni, har bir faoliyatdan zavqlana olishni o'rgatishadi. Farzandlarida kommunikabellikni rivojlantirish maqsadida onalar ularni rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bolalar bog'chalari asosan kichkintoylarni jamoada o'zini tutish, muloqotda bo'lishga o'rgatadi, yozish va o'qish, rasm chizish, yasash, qurish faqatgina maktabdan boshlab o'qitiladi va har bir bolaning iqtidoriga qarab fanlarni tanlashga harakat qilinadi.

Italiyada bolalarning tarbiyasi bilan ota-onadan tashqari bobo va buvilari, xola, amma, tog'ayu amakilari ham shug'ullanishadi. Italiyada bola bog'chaga uch yoshdan boshlab qatnaydi. Bu yerda unga o'qish va yozishni o'rgatib, maktabga tayyorlashadi, jamoaga moslashishni o'rgatishadi. Doimiy ravishda jamoaviy o'yinlar, spektakllar qo'yiladi, haftada ikki marotaba birorta xorijiy til o'rgatiladi.

Angliyada bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e'tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida o'zini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada bo'lishni, o'z hissiyotlarini yashirishni o'rgatishadi.

Avstraliyada kichkintoylar, asosan, rivojlantiruvchi o'yinlar, rasm chizish, plastilindan buyum yasash, applikatsiyalar bilan mashg'ul bo'ladilar. Maktabga erta, ya'ni 5 yoshdan borishlarini inobatga olgan holda muassasada o'qish va yozish o'rgatilmaydi. Tarbiyachi hech qachon onaga bolani yomonlamaydi. Bog'chadan tashqari mamlakatda ko'plab bolalar klublari mavjud. Ular bolalarning qiziqishlariga qarab tashkil etiladi. Avstraliyada faol dam olishga katta e'tibor qaratilgani bois oilaviy tabiat qo'ynida dam olishlar juda ham ommaviylashgan.

Isroilda farzand tarbiyasi alohida e'tiborda, chunki bu yerda bola oilaning markazi hisoblanadi. Bog'chalarga go'daklar 6 oyligidan qabul qilinadi. Barcha bog'chalar kompyuterlar, kutubxonalar bilan jihozlangan. Har hafta tarbiyalanuvchilar, albatta, ekskursiyalarga olib chiqiladi, spektakllar qo'yish, sport va musiqa bilan shug'ullanishga e'tibor qaratiladi.

Xitoy xalqi uch oydan boshlab chaqaloq bog'chaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o'rgatila boshlanadi. Boshlang'ich sinfdanoq intizomli bo'lish, injiqlik qilmaslik va yaxshi o'qish talab etiladi. Itoatkorlik va «men»ni yuzaga chiqarmaslik xitoy tarbiyasining asosidir. Bog'chalarda tarbiya bilan birgalikda jismoniy rivojlanishga katta e'tibor beriladi. Bolaning qiziqishlari inobatga olinib, uning iqtidorini namoyish qilishga harakat qilinadi. tarbiya jismoniy, intellektual va estetikka bo'linadi.

Janubiy Koreya bolalar tarbiyasi bilan, asosan, bolalar bog'chalari va buvilar shug'ullanishayotir. Shunga qaramay, ona uyga kelishi bilan farzandining barcha muammolarini yakka o'zi hal etishga kirishadi. Otalar doimo ishda bo'lganligi sababli kamdan-kam holatda bolalar o'z otalari bilan sirdosh bo'lishadi. Lekin biror-bir masalada oxirgi nuqtani ota qo'yadi. Koreyslar oilasida bobo va buvilarning fikri juda qadrlanadi. Ular oldida bolani urishish mumkin emas. Chunki bu narsa katta yoshdagilarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi. Bobo va buvilar nevaralarining tarbiyasida faol qatnashishadi. An'anaviy bayramlarda ular o'gitlarini ayamay, oila tarixini so'zlab berishadi. Har bir koreyalik o'zining kelib chiqishi va ildizlarini bilishi shart.


Yaponiyadagi kabi Koreyada ham 5 yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin. Kichkintoyni urushishmaydi, uning har bir iltimosi qondiriladi. Onasi esa doimo uning yonida bo'ladi. Besh yoshdan so'ng bola tartib va intizomga o'rgatila boshlanadi. Qanchalik uning yoshi o'sib borsa, shunchalik unga nisbatan talablar kuchayadi. Oilada va maktabda bolaning har tomonlama kamol topishiga, bilimlarni o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniyada bolaning ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi Farmonining 39-bo'limida belgilab qo'yilgan (The Childcare Act 2006). 2000 yilda maktabgacha ta'lim Angliyada rasman ta'lim Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3-5 yoshda gi bolalarga mo'ljallangan va ta'lim hamda tarbiyaning oltita tayanch mazmunini ifodalaydigan yagona milliy dastur asosida ishlashlari belgilangan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Angliya davlati maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalari ta'lim-tarbiyasi uchun mo'ljallangan milliy dasturning 6ta tayanch mazmuni

Mazkur ta'lim va tarbiyaning oltita: shaxsiy, ijtimoiy va emotsional, nutqiy, matematik, jismoniy, ijodiy, atrofda olam bilan tanishuv kabi o'ziga xos tayanch mazmunlarni ifodalagan yagona milliy dasturidagi yo'nalishlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini e'tiborga olgan holda tuzilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga Angliya davlatining ta'lim-tarbiya olish maqsadlari, o'qitishning dastur va metodlari shakllantirilib, bunda har bir bola o'zining potensial imkoniyatlaridan foydalanishi, mas'uliyatni olishi va kattalar hayoti tajribasini o'rganishi uchun muvozanatlashgan va keng ma'naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy ta'lim maktabgacha tayyorlov dasturi bolani ijtimoiy himoya qilish va uni o'qitish, tarbiyalash, shaxsiy rivojlantirish qo'yiladigan talablardan iborat qoidalar majmuasidir. Dasturni amalga oshirish uchun quyidagilardan keng foydalaniladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Dasturni amalga oshirishga qo'yilgan talablar

Davlat dasturini to'liq bajarishda bolalarning ehtiyojidan kelib chiqib didaktik o'yinlar, musiqa va kattalarning hikoyalarini tinglash, kuzatilayotgan hodisalarning tahlili, kattalar va bolalarni jalb qilgan holda muzokaralar tashkil etish, o'rganilayotgan hodisani har tomonlama bilish uchun enagalar instituti, o'yin guruhlari va shu kabi boshqa tashkilot va muassasalar faoliyat yuritadi. Maktabgacha bo'lgan ta'lim jaryonida bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borishlari mumkin.

Ushbu davlatning maktabgacha ta'lim dasturlari bir nechta quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi: Bolalik o'z holicha qadrlidir, u shunchaki hayotning kelgusi pog'onasiga tayyorgarlikka o'qitish emas, balki hayotning bir qismidir;

Bola – har tomonlama rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan bir yaxlitlik sifatida qabul qilinadi, shuning uchun o'qitish alohida predmetlarga bo'linmaydi;

3. O'qitishda ichki rag'batlantirishga alohida e'tibor beriladi, natijada bola o'zi o'qishga intiladi;

Bolalarning mustaqil faoliyat yuritishlari va intizomli bo'lishlari qat'iy nazoratga olinadi, bolalar o'z tajribalariga ega bo'lganlaridagina o'qitish samarali kechadi;

Ta'lim bolalar qila olmaydigan ishlardan emas, aksincha, ular qila oladigan ishlardan boshlanadi;

Har bir bola salohiyatlidir, faqat bu salohiyat qulay sharoitlarda rivojlanadi, bu o'rinda bola aloqa o'rnatadigan kattalar va boshqa bolalar muhim ahamiyatga ega kabi tamoyillar davlat dasturida belgilangan maqsad va vazifalarni ta'minlashga asoslanadi.

Irlandiyaning maktabgacha ta'lim tizimida ilk yoshdagi oila tarbiyasini qo'llab quvvatlashga bo'lgan zamonaviy tasavvurlarga javob beradigan bir qator qoidalar tuzilgan:

- bola parvarishida onalarga yordam berishning turli shakllarini yaratish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida turli, sinalgan, quyi tashkilotlar tashabbusi bilan yaratilgan yangimetodlarni qo'llash;

- maktabgacha tarbiya tizimiga professional kadrlarni tayyorlash.

Germaniya maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yagona dastur yo'q. Bolalar bog'chasi xodimlari o'z ishini konsepsiyasini o'zlari ishlab chiqishadi. Germaniyada, ayniqsa, tarbiyachining fe'lidagi empatik xususiyat nihoyatda qadrlanadi.

- bu o'zini boshqa bir odamning o'rniga qo'ya bilish, unga to'laligicha hamdard bo'lish va ziddiyatga kirisha olish va uni hal qilish;

- o'z nuqtayi nazarini himoya bolalar bog'chalariga 3-6 yoshli bolalarni olishadi.

Bolalar bilan ko'p shug'ullanadigan (funktional-yo'naltirilgan)

va bolalar o'z holiga qo'yilgan (vaziyatga yo'naltirilgan) bolalar bog'chalari bor. Bolalar bog'chalarining tarbiyachilik jarayoni markazida:

- erkin o'yin va muloqot;


- intensiv ta'lim;

- yosh bo'yicha aralash guruhlarda tarbiya olish;

- harakatli o'yinlar, qo'l mehnati, rasm chizish, illustratsiyali kitoblarni o'qish;

- sayr va erkin o'yinlarga e'tibor beriladi.

Turkiya maktabgacha ta'lim maqsadlari milliy ta'lim tamoyillariga mos bo'lib, unda barcha bolalarning ijodiy rivojlanishiga, ularning xulqida ijobiy xususiyatlarni tarkib toptirishga asoslanadi (3-rasmga qarang).




3-rasm. Turkiya davlatining maktabgacha ta'lim tamoyillari

Ushbu tamoyillar barcha ta'lim muassasasi uchun yagona bo'lib, bolalar ta'lim va tarbiyasida: atrofdagi olam qonunlarini bilish, bolalarni jismoniy, aqliy, emotsional rivojlanishini ta'minlash hamda bolalar xulqida ijobiy odatlarni shakllantirish, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash, noxush oila farzandlariga normal ijtimoiy sharoitlar yaratish orqali zamonaviy jihozlar, kompyuterlar, laboratoriyalar bilan ta'minlash, iqtidorli bolalar uchun dasturlar yaratish, turk tilini rivojlantirish, nutqni rivojlantirish, ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlar, musiqa kabilar birlamchi talablardir.

Finlandiyada bolaning yoshi va individual ehtiyojlaridan kelib chiqib, umummadaniy an'analarni inobatga olgan holda jamoaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritadi. Bunda asosiy ta'lim - tarbiyadagi e'tibor bolalarning jismoniy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga qaratilib, bola

shaxsiyatining estetik, intellektual va diniy shakllanishiga yordam beradi.

Finlyandiya bolalar bog'chalari quyidagi qonun va tamoyilarga asoslanadi(4-rasmga qarang).



4-rasm. Finlyandiya bolalar bog'chasida davlat talablari

Finlandiyada bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalashda ular uchun jismoniy, axloqiy, aqliy rivojlanishga sharoit yaratish, o'z tengdoshlari bilan muloqotning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirishni ta'miljovchi: jismoniy ko'nikma va sog'likni rivojlantirish, emotsional va hissiy, kognitiv bilimlarning rivojlanishini qo'llash, kelgusi o'qishda muvaffaqiyatga olib keladigan ko'rsatma va natijani shakllantirish, bolalar va ularning ota-onalarida jamiyat oldida ma'suliyat hissini shakllantirish, lug'at boyligini kengaytirish, matematik tushunchalarni shakllantirish, tabiat va jamiyat to'g'risida tasavvurni shakllantirish,

axloqni shakllantirish: Vatanga, xalqqa, oilaga, bolalar bog'chasiga, tarbiyachi va do'stlariga muhabbat, altruizm, bo'lishishga ishtiyoq, kamtarlik, tanqidni qabul qila olish, rostgo'ylik, kattalarga hurmat, optimizm va ishonch hissi, mehnat tarbiyasi: jamoada ishlay olish, jamoa mulkiga hurmat, musiqa va san'at bilan shug'ullanish kabi asosiy maqsadlar belgilanadi.

Yaponiya davlati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaga tengdoshlari va kattalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish, sog'lom hayotiy odatlarni o'zlashtirish, tabiatni hurmat qilish, ijtimoiy hulq ko'nikmalarini egallash, bolada emotsional muvozanatni ta'minlash, sog'liqqa e'tibor, ijtimoiy muloqotni nazorat qilish, ijodiy muhitni yaratish va tanishish, nutqni rivojlantirish, o'z-o'zini ijodkorona namoyon qilish kabilar asosiy tarbiya tamoyillari bo'lib belgilangan.

Yuqoridagi rivojlangan mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaga qo'yilgan maqsad va vazifalar, mazkur jarayonlardagi mazmun, ularda belgilangan tamoyillar, talablarni o'rganib chiqib quyidagi xulosalarni berishni lozim deb topdik:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxs sifatida o'zini taniydi;
- jamoaviy faoliyatga o'rganadi;
- mustaqil harakat qilishni boshlaydi;
- berilgan topshiriqni bajarishda ma'suliyatga ega bo'ladi;
- ekologik va estetik tarbiyalanadi;
- amaliy faoliyat jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi;
- o'z-o'zini baholaydi;
- kattalar va tengdoshlaridan ibrat oladi;
- do'st orttiradi;
- qonun va tartibga o'rganadi;
- yaxshi va yomonni anglay boshlaydi;

- muloqot qilishni faollashtiradi....

Ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida shakllantiriladigan sifatlar barcha rivojlangan davlatlarning ta'lim dasturlaridagi bolaning emotsional va hissiy, kognitiv bilimlarni rivojlantirish, jismoniy, axloqiy, aqliy rivojlanish, kelgusi o'qishda muvaffaqiyatga olib keladigan jarayonlarning barchasi ta'lim-tarbiyada bolalar ijodkorligini rivojlantirishga asoslanganligi bilan baholanadi.

Xulosa va tavsiyalar:

Har bir davlat dasturida bolalarning ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini hisobga olgan tarzda ularning ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy mashqlar, amaliy faoliyat turlari, tasviriy san'at, badiiy san'at, milliy san'at va xalq og'zaki ijodidan foydalanish, harakatli va rolli o'yinlar, teatr san'atining ilk ko'rinishlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bola tarbiyasida badiiy pedagogika, ART pedagogikasi vositalaridan foydalanish metodikasining rivojlanib borishi ushbu davlat ta'lim tizimida yuqori sinflarda ham uzluksiz davom ettirilishi bilan ahamiyatli ekanligini ta'kidlaymiz.

Innovatsion-integratsion tarzda ta'limni tizimli isloh qilishning zamonaviy sharoitida XXI asr muammolariga javob beradigan yangi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash bilan bog'liq muammolar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kun tarbiyachilarida akmeologik qobiliyatlarni tarkib toptirish, ularning kasbiy kompetentlik darajasini takomillashtirish ularning ta'lim – tarbiya jarayonida bolalar ijodkorligini badiiy pedagogika, ART pedagogikasi vositasida rivojlantirish bo'yicha bilimlarni egallash bilan bir qatorda doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy salohiyatni ochib berish muhim. Bugungi kunda bolalarni tinglash va tushunishga qodir va tayyor, ularning qiziqishi va ehtiyojini aniqlash qobiliyatiga ega, ularning yordamchisi va do'sti bo'ladigan, badiiy pedagogikaning texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan pedagogni tayyorlash asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmon
Сергеева Наталья Юрьевна. Содержание понятия «Артпедагогика» // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. — 2008. — № 1.

Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993.

Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.

Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: "Tafakkur" nashriyoti. 2019. – 685 b.

Мирзаева, Д. Ш. (2020). Методы использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий в начальных классах. *Academy*, (3 (54)), 85-86.

Мирзаева, Д. Ш., & Рахматова, Д. Х. К. (2020). Методы развития речи в процессе развития речи у детей. *Academy*, (6 (57)), 93-94.

Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, Раъно Салим Кизи Мухитова, and Иномова Кудратой Уйғуновна. «Формы сотрудничества с семьями дошкольных образовательных учреждений.» *Academy* 5 (56) (2020): 59-61.

Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна. «Внедрение мультимедийных технологий в дошкольное образование.» *Научный журнал* 6 (40) (2019): 99-100.

Мирзаева, Д. Ш. (2017). Деятельность учителя по развитию интереса к учению у учащихся начальных классов. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 32, pp. 91-